


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

*60110200 – Maktabgacha ta'lif bakalavriat ta'lif yo'nali shining malaka talablari*

**Chirchiq**



## **ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2022-yil “29” avgust dagi 5 - sonli yig‘ilishida muhokama qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2022-yil “9” 09 dagi 302-son buyrug‘i bilan ma’qullangan.

## **JORIY ETILGAN:**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy malaka doirasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

## MUNDARIJA

	bet
T/r	
1. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’yektlari.....	5
1.2.3. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari.....	5
1.2.4. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlearning kasbiy vazifalari.....	6
2. <i>60110200 – Maktabgacha ta’lim</i> yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlearning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.1. Tayanch kompetensiyalar.....	7
2.2. Umumkasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3. Kasbiy kompetensiyalar.....	13
3. O‘quv yuklamasining hajmi.....	15
Bibliografik ma’lumotlar.....	16

## OLIY TA'LIM MALAKA TALABI

### OLIY TA'LIM DARAJASI – BAKALAVRIAT

#### BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHI: 60110200 – MAKTABGACHA TA'LIM

##### 1. 60110200 – *Maktabgacha ta'lism* bakalavriat ta'lism yo'nali shining umumiy tavsifi

*60110200 – Maktabgacha ta'lism* ta'lism yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi va kechki (sirtqi) ta'lism shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lism shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 3 yil.

#### 1.1. Qo'llanish sohasi

##### 1.1.1. 60110200 – *Maktabgacha ta'lism* yo'nali shi malaka talabining qo'llanilishi.

Malaka talabi *60110200 – Maktabgacha ta'lism* bakalavriat ta'lism yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lism muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

##### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta'lism yo'nali shi bo'yicha malaka talablari, fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lism muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lism yo'nali shining o'quv-reja va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lism muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalari;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli Davlat organlari;
- oliy ta'lism muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lism tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lism muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### 1.2. 60110200 – *Maktabgacha ta'lism* yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

##### 1.2.1. 60110200 – *Maktabgacha ta'lism* yo'nali shi bo'yicha bitiruvchilar kasbiy faoliyatining sohalari:

Davlat va nodavlat maktabgacha ta'lism tashkilotlari, maktabgacha yoshdag'i guruhlari mavjud bo'lgan «Mehribonlik» uylari va «Bolalar shaharchalari», Ko'p tarmoqli iqtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lism tashkilotlari, maktabgacha ta'lism yo'nali shi bor bo'lgan professional ta'lism muassasalarida maktabgacha ta'limga oid fanlar bo'yicha pedagogik faoliyat;

Maktabgacha pedagogika va bolalar psixologiyasi sohalarida ilmiy-tadqiqot faoliyati;

*Yo'nali shi bo'yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda bakalavr larning kasbiy faoliyat sohalarida qo'shimcha va o'zgarishlar bo'lishi mumkin.*

### **1.2.2. 60110200 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining ob’yeqtari:**

maktabgacha ta’lim fanlari mazmunini tashkil etuvchi tushunchalar, gipotezalar, ta’riflar, usullar, uslublar va pedagogik modellar;

ta’lim jarayoni;

pedagogik texnologiyalar va metodlari;

shaxsiy va kasbiy axborot maydonini shakllantirish jarayoni;

darsdan tashqari ta’lim-tarbiya jarayoni;

ta’lim sohasidagi muammolar va ularning yechimlarini topish jarayoni;

ta’limni boshqarish va pedagogik jarayonni tashkil etish;

ixtisoslik bo‘yicha ilmiy-tadqiqot jarayonlari.

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији ютуqlари, кадрлар буюртмачилари талабларидан келиб чиқсан holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat ob’yeqtariда qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

**60110200 – Maktabgacha ta’lim** yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

- Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, Maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan «Mehribonlik» uylari va «Bolalar shaharchalari», Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bor bo‘lgan professional ta’lim muassasalarida “Bolalar nutqini o‘stirish”, “Tasviriy faoliyatga o‘rgatish”, “Jismoniy tarbiya”, “Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish”, “Tabiat bilan tanishtirish” faoliyatlaridan o‘rnatilgan tartibda pedagogik faoliyat olib borish;

- ta’lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda faoliyat olib borish;

- mos ta’lim yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uni tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo‘lib ishlash;

- pedagogik fanlar yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo‘lib ishlash;

- mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma’naviyat va ma’rifat markazlarida ishlash.

### **1.2.3. 60110200 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *pedagogik* (Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, Maktabgacha yoshdagi guruhlari mavjud bo‘lgan «Mehribonlik» uylari va «Bolalar shaharchalari», Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, ta’lim yo‘nalishi bor bo‘lgan professional ta’lim muassasalarida);

- *ilmiy- tadqiqot;*

- *tashkiliy boshqaruv;*

*Yo‘nalish bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamонавији ютуqlари, кадрлар буюртмачилари талабларидан келиб чиқсан holda bakalavrлarning kasbiy faoliyat turlariда qo‘srimcha va o‘zgarishlar bo‘lishi mumkin.*

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlangan bakalavrular kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta’lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta’lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

Bakalavriat dasturi tashkilot tomonidan o‘quv faoliyati turlari va ta’lim dasturini o‘zlashtirish natijalariga qo‘yiladigan talablarga qarab shakllantiriladi.

#### **1.2.4. 60110200 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy vazifalari:**

*pedagogik* (Davlat va nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari, Maktabgacha yoshdagи guruhlari mavjud bo‘lgan «Mehribonlik» uylari va «Bolalar shaharchalari», Ko‘p tarmoqli iqtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkilotlari, kasb hunar makt maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bor bo‘lgan professional ta’lim muassasalarida) *faoliyatda*:

maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta, professional ta’lim muassasalari, maktabgacha ta’limga oid fanlarni o‘qitish;

maktabgacha ta’lim tashkiloti, umumiy o‘rta, professional ta’lim muassasalari o‘quv jarayonini metodik ta’minotini ishlab chiqish.

##### *Ilmiy-tadqiqot faoliyatda:*

ilmiy rahbar boshchiligidagi ilmiy loyihalarda ishtiroy etish;

ilmiy rahbar boshchiligidagi fundamental maktabgacha ta’lim fanlarining asosiy tushunchalari, g‘oyalari va usullarini qo‘llash;

ilmiy rahbar boshchiligidagi olib borayotgan tadqiqot mavzusi bo‘yicha sharhlar, izohlar, tezislar va bibliografiyalar tayyorlash;

ilmiy rahbar boshchiligidagi ilmiy – tadqiqot loyihalari mavzusi doirasida maktabgacha ta’lim modellar, usullar, dasturiy ta’minot, vositalarni tadqiq qilish va ishlab chiqish.

##### *Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:*

kasbiy axloq etikasiga rivoja qilish;

boshqaruv jarayonlarida pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanish;

fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda to‘g‘ri qaror qabul kilish;

maktabgacha ta’lim, xalq ta’limi boshqarma va bo‘limlarida maktabgacha ta’limga oid fanlardan metodik va ekspert ishlarini olib bora olish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

### **2. 60110200 – Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

#### **2.1. Tayanch kompetensiyalar (TK)**

Tayanch kompetensiyalar toifalari	Tayanch kompetensiyalar	Tayanch kompetensiyalarga erishish indikatorlari
Faol fuqarolik	TK-1. Fuqarolik pozisiyasini shakllantirish uchun jamiyat tarixiy rivojlanishining asosiy bosqichlari va qonuniyatlarini tahlil qila oladi.	TK-1.1. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni asosli, mantiqiy idrok etadi. TK-1.2. Kasbiy faoliyatida tarbiyalanuvchilar va jamoa orasida ijtimoiy, tarixiy voqealarni to‘g‘ri va xolis talqin qila oladi.
	TK-2. Dunyoqarash pozisiyasini shakllantirish uchun falsafiy bilimlar asoslaridan foydalana oladi.	TK-2.1. Umummilliy qadriyatlar va vatanparvarlik g‘oyalarni mukammal tushunadi. TK-2.2. Shaxs duyoqarashi shakllari, turlari va tamoyillaridan foydalananadi.
Muloqot	TK-3. Faoliyatida davlat va xorijiy tillarda og‘zaki hamda yozma shakllarda muloqot qila oladi.	TK-3.1. Xorijiy tillarni biladi hamda o‘zga millatlar madaniyatini hurmat qiladi. TK-3.2. Milliy va xorijiy ommoviy axborot vositalarini kuzatadi va tahlil qila oladi.

		oladi.
		TK-3.3. Kasbiy maqsadlariga erishish va samarali muloqot qilish uchun davlat va xorijiy tillarda og‘zaki va yozma shakllarda muloqot qila oladi.
Raqamli texnologiyalardan foydalanish	TK-4. Kasbiy faoliyatidagi maqsadga erishishda va vazifalarni bajarishda zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalana oladi.	TK-4.1. Raqamli texnologiyalardan foydalana oladi, ma’lumotlarni ishlash, qayta ishlash va ulardan foydalana olishni biladi. TK-4.2. Kasbiy faoliyatida tayyor dasturiy ta’minotlarni va raqamli texnologiyalarni ishlata oladi va o‘quv jarayoniga joriy qiladi.
Jamoada ishlash, hamkorlik va yetakchilik	TK-5. Ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni amalga oshiradi va jamoada o‘z rolini belgilay oladi.	TK-5.1 Jamoada ishlash qobiliyati hamda yetakchilik fazilatlari va ko‘nikmalarini namoyon etadi. TK-5.2. Samarali nutqiy va ijtimoiy o‘zaro aloqa qilish qobiliyatini, shu jumladan, turli tashkilotlar bilan ishlashda namoyon etadi.
Tizimli va tanqidiy fikrlash	TK 6. Axborotni izlash, tanqidiy tahlil va sintez qilish, vazifalarni hal qilish maqsadida tizimli yondashuvni qo‘llaydi	TK-6.1 Tizimli va tanqidiy fikrlashning xususiyatlari to‘g‘risida bilimlarni namoyish etadi, ma’lumotlarga nisbatan o‘z mulohazalari va baholarini asosli shakllantiradi, asosli qaror qabul qiladi. TK-6.2. Mantiqiy shakl va tartiblarni qo‘llaydi, o‘zining va boshqalarning aqliy faoliyati haqida fikr yurita oladi. TK-6.3 Axborot manbaalarini qarama-qarshilik va ishonchlik nuqtai nazaridan tahlil qiladi.

## 2.2. Umumkasbiy kompetensiyalar (UKK)

Kasbiy faoliyat sohasi. <i>Ta’lim-tarbiya jarayonini boshqarish</i>		
Umumkasbiy kompetensiyalar toifalari	Umumkasbiy kompetensiyalar	Umumkasbiy kompetensiyalarga erishish indikatorlari
1. Ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish	UKK-1.1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartlari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv jarayonlarining taqvimiyl mavzuli rejasini ishlab chiqadi. UKK-1.1.2. Tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv tarbiyaviy faoliyatni moslashtiradi.	UKK-1.1.1. Maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartlari va “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturlarining maqsadlariga muvofiq o‘quv jarayonlarining taqvimiyl mavzuli rejasini ishlab chiqadi. UKK-1.1.2. Tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o‘quv tarbiyaviy faoliyatni moslashtiradi.

		UKK-1.1.3. Faoliyat jarayonlarida faoliyatlararo kompetensiyalarni korreksiya va integratsiya tamoyillarini hisobga oлган holda o‘z faoliyatini rejalashtiradi.
	UKK-1.2. O‘quv dasturiga mos ravishda o‘quv-metodik jamlanmalarni (faoliyat rejasи, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallar) ishlab chiqadi.	UKK-1.2.1. Tarbiyalanuvchilar bilimi baholash natijasida olingen ma'lumotlarni inobatga oлган holda, bolaning rivojlanish xaritasi asosida aniq va muayan maqsadli natijalarini aniqlab, faoliyat rejasini ishlab chiqadi. UKK-1.2.2. O‘quv rejaning maqsadlari, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari va o‘zlashtirishiga mos keladigan faoliyat shakllari va usullarini rejalashtiradi. UKK-1.2.3. Tegishli o‘quv, didaktik, taqdimot va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtiradi. UKK-1.2.4. Faoliyat jarayoniga zamонавиу axborot texnologiyalar integrasiyasini rejalashtiradi.
2.Ta’lim-tarbiya samaradorligini ta’minalash dasturlarini oshirish)	(ta’lim amalgamaga	UKK-2.1.1. Tarbiyachi ta’lim jarayonini samarali tashkil etadi. UKK-2.1.2 Faoliyat vaqtidan oqilona foydalanadi. UKK-2.1.3 O‘quv jarayonini qo‘llab-quvvatlash va ta’limiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanadi. UKK-2.1.4. Tarbiyalanuvchilar bilimi baholash natijasida olingen ma'lumotlar asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish va ta’lim berishdagi yondashuvlarining samaradorligini tahlil qiladi. UKK-2.1.5. Tarbiyalanuvchilarning ta’limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan ta’lim berish usullari va yondashuvlarni tanlaydi.
	UKK-2.2. Tarbiyachi o‘quv maqsadlari va tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlariga mos ravishda o‘qitishning usul va uslublaridan foydalanadi.	UKK-2.2.1. Ta’lim-tarbiya berishning faol usullaridan foydalanadi. UKK-2.2.2 Maktabgacha ta’limning davlat standartlarida belgilangan tarbiyalanuvchilarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan usullardan foydalanadi. UKK-2.2.3. Tarbiyalanuvchilarning jamoaviy ishlarini tashkil etadi. UKK-2.2.4. Tarbiyalanuvchilarni nazorat qilish va o‘z - o‘zini baholash ko‘nikmalaridan foydalanadi
	UKK-2.3. Tarbiyachi	UKK-2.3.1. Tarbiyalanuvchilarga

	tarbiyalanuvchilarni o'rgatish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga faol jalb qiladi.	individual ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z vaqtida differensial yordam beradi. UKK.-2.3.2. Faoliyat mavzusini amaliyot bilan (hayotdagi misollar yordamida) bog'laydi. UKK.-2.3.3. Faoliyat davomida har bir tarbiyalanuvchiga o'z g'oyalari va qarashlarini ifoda etish imkoniyatini beradi.
3. Ta'lim-tarbiya jarayonini kuzatish, baholash va tahlil	UKK-3.1. Tarbiyachi zamонавиyz nazariyalarini biladi va qo'llaydi.	UKK-3.1.1. Tarbiyalanuvchilar faoliyatlarga oid kompetensiyalarni baholay oladi. UKK-3.1.2. Ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. UKK-3.1.3. Kasbiy faoliyatda baholash talablari asosida ta'lim natijalarining sifatini baholay oladi. UKK-3.1.4. Tarbiyalanuvchilarning innavatsion ko'nikmalariga ega ekanligini, faol, qiziquvchan va jamoada tashabbuskor, bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llay oladigan, shaxs sifatida shakllanganligini baholay oladi. UKK-3.1.5. Ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi.
	UKK-3.2. Tarbiyalanuvchilar ning ta'lim yutuqlarini muntazam ravishda baholaydi va ularni tahlil qiladi.	UKK-3.2.1. Tarbiyalanuvchilar tomonidan bilimlarni egallash darajasini (hajmini) muntazam va tizimli ravishda kuzatib boradi. UKK-3.2.2. Tarbiyalanuvchilar erishgan yutuq va natijalarini tahlil qiladi. UKK-3.2.3. Faoliyat rejasи va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanadi.
	UKK-3.3. Tarbiyalanuvchilar ga ularning yutuqlari haqida ma'lumot beradi, ularni o'qishni davom ettirish va rivojlanishga undaydi.	UKK-3.3.1. Tarbiyalanuvchilarning yutuqlarini baholaydi, bahoni asoslab beradi. UKK-3.3.2. Tarbiyalanuvchilarning yutuqlarini baholash orqali, ularni ta'lim olish motivatsiyasini oshiradi.
	UKK-3.4. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchilarining o'r ganishdagi qiyinchiliklarini kuzatadi va tavsiflaydi. Agar kerak bo'lsa, tarbiyachi tegishli sohadagi mutaxassisiga murojaat qiladi.	UKK-3.4.1. Tarbiyalanuvchilar ta'lim jarayonida to'qnashgan qiyinchiliklarini kuzatadi va qayd etadi. UKK-3.4.2. Ushbu guruhda faoliyat beradigan hamkasblari bilan muayyan tarbiyalanuvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida maslahatlashadi. UKK-3.4.3. Muayyan tarbiyalanuvchining ta'lim olishdagi qiyinchiliklari to'g'risida tegishli soha mutaxassislari bilan maslahatlashadi.
4.Tarbiyaviy faoliyatni	UKK-4.1. Tarbiyachi ta'lim-	UKK-4.1.1. Tarbiyalanuvchilarning

tashkil etish.	tarbiya faoliyatini tashkil qiladi, tarbiyalanuvchilarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan turli shakllarda ijtimoiy me'yorlarni shakllantiradi.	ehtiyojlarini inobatga olgan holda rivojlanishiga hissa qo'shadigan ta'limgardagi maqsadlari va vazifalarini belgilaydi
	UKK-4.2. Tarbiyachi tarbiyaviy faoliyatini amalga oshiradi, qadriyatlarni rivojlantirish va tarbiyaviy ishlarning interfaol, shakllari va usullarini qo'llaydi.	<p>UKK-4.2.1. Tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, shu jumladan interaktiv shakl va usullarini faoliyat va guruhdan tashqari ishlarida qo'llaydi.</p> <p>UKK-4.2.2. Tarbiya ishlarni olib borishda tarbiyalanuvchilarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga oladi.</p> <p>UKK-4.2.3. Bolaning emosional-qadriyatlari sohasini rivojlantiradigan vaziyatlar va hodisalarini loyihalashtiradi (bolaning ta'sirchanlik madaniyati va qadriyatlari yo'naliшlarini).</p> <p>UKK-4.2.4. Maktabgacha ta'limgardagi ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq tarbiyalanuvchilar uchun aniq odob-axloq qoidalarini belgilaydi va o'rnatadi.</p> <p>UKK-4.2.5. Tarbiyalanuvchilarning jamoaviy faoliyatini tashkil qilishda yordam beradi va qo'llab-quvvatlaydi.</p> <p>UKK-4.2.6. Ta'limgardagi muassasasining imkoniyatlarini, yashash joyi va mintaqaning tarixiy-madaniy o'ziga xosligini hisobga olgan holda guruhdan tashqari ishlarning har xil turlarini: o'yin, o'quv-tadqiqot, badiiy va samarali, madaniy va bo'sh vaqtlarini tashkil etadi.</p> <p>UKK-4.2.7. Ziddiyatlarni hal qilish, guruhda va undan tashqarida muloqot qilish uchun ijobiy muhit yaratishda muloqot o'tkazadi.</p> <p>UKK-4.2.8. O'zgaruvchan ko'p madaniyatlari muhitda tarbiyalanuvchilarida bag'rikenglik, odob-axloq va maktabga tayyorgarlik bo'yicha ko'nikmalarni shakllantiradi.</p> <p>UKK-4.2.9. Tarbiyalanuvchilar kognitiv faoliyatlari, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik, "Men" konsepsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantiradi.</p>
5. Psixologik xavfsiz va do'stona muhitni yaratish	UKK-5.1. Tarbiyachi har bir tarbiyalanuvchi uchun psixologik xavfsiz muhit yaratadi.	<p>UKK-5.1.1. Tarbiyalanuvchilar erkin rivojlanishlari va o'zlarini namoyon eta olishlari uchun o'zaro hurmat muhitini yaratadi.</p> <p>UKK-5.1.2. Jinsi, millati, madaniyati, ona tili, dini, oilaviy ijtimoiy-iqtisodiy holati</p>

		va/yoki alohida ehtiyojlaridan qat'iy nazar, har bir tarbiyalanuvchiga ta'lim-tarbiya olishi va guruh hayotida qatnashish uchun teng imkoniyatlar yaratadi.
	UKK-5.2. Tarbiyachi turli vaziyatlarda tarbiyalanuvchilarning ruhiy xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.	UKK-5.2.1. Nizoli vaziyatlarni yetarli darajada hal qiladi. UKK-5.2.2. Tarbiyalanuvchilarga xavfsizlik qoidalarini mazmuni va ularga rioya qilish asoslarini tushunishga va unga rioya qilishga yordam beradi. UKK-5.2.3. Tarbiyalanuvchilarni guruhdagi va maktabgacha ta'lim tashkilotidagi odob ahloq me'yorlariga rioya etishga jalb qiladi UKK-5.2.4. Tarbiyalanuvchilarga turli xil tahdidlarning mohiyati, favqulodda vaziyatlarda proseduralarning mazmuni va harakatlar ketma-ketligini tushuntiradi.
	UKK-5.3. Tarbiyachi guruhni samarali boshqaradi va ta'lim-tarbiya muhitini tarbiyalanuvchilar ehtiyojlariga moslashtiradi.	UKK-5.3.1. Tarbiyalanuvchilarning ehtiyojlariga javob beradigan aniq ko'rsatmalar berish orqali guruhdagi tarbiyalanuvchilar faoliyatini boshqaradi. UKK-5.3.2. Tarbiyalanuvchilarning maxsus ta'limiy ehtiyojlarasi asosida individuallashtirilgan ish olib boradi.
	UKK-5.4. Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarda zamonaviy ommaviy axborot vositalarida xavfsiz ishlash savodxonligini rivojlantiradi.	UKK-5.4.1. Tarbiyalanuvchilarga zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam beradi.

#### **Kasbiy faoliyat sohasi. Kasbiy rivojlanish va hamkorlik**

6. O'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish	UKK-6.1. Tarbiyachi uzlusiz ta'lim olishning muhimligini tushunadi va kasbiy rivojlanish uchun turli imkoniyatlardan foydalanadi.	UKK-6.1.1. Muntazam malaka oshirish kurslaridan o'tadi UKK-6.1.2. Doimiy ravishda fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llaydi. UKK-6.1.3. Seminar va treninglarda, shuningdek kasbiy rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan boshqa tadbirdarda qatnashadi.
	UKK-6.2. Hamkasblari bilan tajriba almashish va ularning kasbiy mahoratini oshirish maqsadida tarbiyachi hamkorlikda ishlaydi.	UKK-6.2.1. Ishni takomillashtirish va tajriba almashishdan iborat bo'lgan maktabgacha ta'limning "uslubiy kengashlari"da qatnashadi. UKK-6.2.2. O'zaro faoliatlarda qatnashadi, ularni tahlil qiladi, undan o'zining kasbiy faoliyatida foydalanadi.
	UKK-6.3. Tarbiyachi o'z ishini o'z-o'zini tahlil qilish va o'zini o'zi baholash asosida o'z kasbiy	UKK-6.3.1. O'z tajribasini namoyish etish uchun ochiq faoliyatlarga tayyorgarlik ko'radi va o'tkazadi. UKK-6.3.2. O'zining ta'lim faoliyatini

	rivojlanishini rejalashtiradi va amalga oshiradi.	(kuchli va zaif tomonlarini) yetarlicha baholaydi va kasbiy rivojlanish ehtiyojlarini belgilay oladi. UKK-6.3.3. O'zining ish amaliyotida kerakli o'zgarishlarni amalga oshiradi.
7. Maktab, oila va mahalla bilan hamkorlik	UKK-7.1 Tarbiyachi bolalarning rivojlanishi manfaatlarida maktab, oila va mahalla bilan hamkorlikka jalb qila oladi.	UKK-7.1.1. Tarbiyalanuvchilarning maktab, oila va mahalla bilan hamkorlikda ta'limgartarbiya jarayoniga jalb qiladi. UKK-7.1.2. Tarbiyalanuvchilarning maktab, oila va mahalla bilan hamkorlikda guruh va maktabgacha ta'limgartayotiga jalb qiladi. UKK-7.1.3. Tarbiyalanuvchilarning rivojlanishida maktab, oila va mahalla hamkorligi doirasida qaror qabul qilish hamda ishtirok etishga jalb qiladi.
	UKK-7.2 Tarbiyachi o'quv vazifalarini bajarish uchun hamkasblari mutaxassislarini bilan hamkorlik qiladi.	UKK-7.2.1. Tarbiyalanuvchilarning individual ta'limgartayotishlari uchun tarbiyachilar va boshqa mutaxassislar bilan o'zaro aloqada bo'lib, ta'limgartayotiga tayyorlashda boshqa pedagog xodimlar va mutaxassislar, bilan hamkorlik qiladi. UKK-7.2.2. Tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va tarbiyalanuvchilarni maktab hayotiga tayyorlashda boshqa pedagog xodimlar va mutaxassislar, bilan hamkorlik qiladi.

### 2.3. Kasbiy kompetensiyalar (KK)

Kasbiy kompetensiyalar toifalari	Kasbiy kompetensiyalar	Kasbiy kompetensiyalarga erishish indikatorlari
Mutaxassislik faoliyatasi asoslari	KK-1. Kelajakdagi kasbiy faoliyatda "Bolalar nutqini o'stirish", "Tasviriy faoliyatga o'rgatish", "Jismoniy tarbiya", "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish", "Tabiat bilan tanishtirish" kabi o'quv jarayoni bo'yicha bilim va ko'nikmalarni namoyon etadi.	KK-1.1. Kasbiy faoliyatda "Bolalar nutqini o'stirish", "Tasviriy faoliyatga o'rgatish", "Jismoniy tarbiya", "Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirish", "Tabiat bilan tanishtirish" kabi o'quv jarayoni bo'yicha bilim va ko'nikmalarni namoyon etadi. KK-1.2. Maktabgacha ta'limgartayotishda o'quv jarayoni bo'yicha bilimlari asosida ilmiy-tadqiqot ishlari ishtirok eta oladi.
Ilmiy-tadqiqot faoliyati	KK-2. Ilmiy-tadqiqot ishlari bajarishda ishtirok etadi.	KK-2.1. Kasbiy faoliyatda ilmiy-texnik muammolarni hal etishda ishtirok etadi. KK-2.2. Kasbiy faoliyatda va iqtisodiyot tarmoqlarida innovatsion va startap loyihalarni amalga oshirishda ishtirok eta oladi.
Tarbiyaviy funksiyalar.	KK-3. Aniq maqsadlarga yo'naltirilgan kasbiy vazifalarni yechishda nazariy bilim, amaliy ko'nikma va	KK-3.1. O'quv modulining (o'quv fani) tuzilishi, tarkibi va didaktik birliklarini biladi. KK-3.2. Davlat standartlariga muvofiq ta'limgartayotiga tayyorlashda uni amalga oshirish uchun ta'limgartayotishda ishtirok eta oladi.

	malakalarga ega bo'ladi va ulardan foydalana oladi.	mazmunini tanlashni biladi (o'qitish metodikasi) qibiliyatiga ega bo'ladi.  KK-3.3. O'quv modullarining turli shakllarini ishlab chiqish, o'qitish usullari va texnologiyalari, shu jumladan raqamli texnologiyalarni qo'llash qibiliyatiga ega bo'ladi.
	KK-4. Madaniy-ma'rifiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'ladi.	KK-4.1. O'quv modullari mazmunidan (profil bo'yicha) foydalangan holda madaniy-ma'rifiy makonni tashkil qiladi va madaniy-ma'rifiy faoliyatning turli texnologiyalari va usullarini qo'llaydi.  KK-4.2. Madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning turli yoshi, jinsi, ijtimoiy-madaniy, etnik guruuhlar ehtiyojlarini hisobga olgan holda, fan yo'naliшlarining (profil bo'yicha) mazmuniy resurslaridan kelib chiqqan holda tashkil etish usullaridan foydalana oladi.  KK-4.3. O'quv jarayoni sub'yektlari o'rtasida bilimlarni (profil bo'yicha fan bo'yicha) ommalashtirishda ishtirok etadi.
	KK-5. Maktabgacha ta'limga oid o'quv jarayoni bo'yicha tarbiyalanuvchilarning individual va jamoaviy o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil qila oladi.	KK-5.1. Loyihalashtirishni bilish, loyihalashtirish texnologiyalardan foydalana oladi.  KK-5.2. Tarbiyalanuvchilarning tegishli yo'naliш bo'yicha individual va jamoaviy o'quv-tarbiya jarayoni faoliyatini ishlab chiqadi va amalga oshiradi.  KK-5.3. Maktabgacha ta'lim yo'naliш bo'yicha tarbiyalanuvchilarning o'quv-tarbiya faoliyatini amalga oshirish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalana oladi.
	KK-6. Imkoniyati cheklangan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy uslub va texnologiyalardan foydalana oladi.	KK-6.1. Imkoniyati cheklangan tarbiyalanuvchilarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashning maxsus usullari va zamonaviy texnologiyalarini biladi.  KK-6.2. Maxsus ta'limga muhtoj tarbiyalanuvchilarning ota-onalariga (qonuniy vakillariga) bolalarni tarbiyalash va o'qitish masalalari bo'yicha maslahatlar berish usullarini tanlay oladi.
	KK-7 Zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan, shu jumladan masofaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil eta oladi.	KK-7.1. Zamonaviy uslub va texnologiyalarga muvofiq turli xil darajadagi ta'lim dasturlarini ishlab chiqsa oladi.  KK-7.2 Ta'lim-tarbiya jarayoni sifatini nazorat qilish vositalarini shakllantiradi.  KK-7.3. Diagnostika va monitoring faoliyati natijalariga muvofiq o'quv jarayonini korreksiya qilish rejasini ishlab chiqadi.
	KK-9. Ta'lim-tarbiya jarayoni va faoliyatlarda tarbiyalanuvchilarnig	KK-9.1. Bolalar shikastlanishining oldini olish choralarini qo'llash va sog'lig'in saqlash texnologiyalardan foydalananadi.

	sog‘lig‘ini muhofaza qilishni hamda ta’minlashni biladi.	KK-9.2. Tarbiyalanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatadi.
--	--	---

### 3. O‘quv yuklamasining hajmi

O‘quv reja tarkibi quyidagi modullardan iborat bo‘lishi maqsadga muvofiq: umumiy fanlar moduli, til va muloqot moduli, pedagogik-psixologik fanlar va tarbiyaviy faoliyat moduli, ilmiy-tadqiqot moduli, kasbiy fanlar va ularni o‘qitish metodikasi moduli, tanlov fanlari (qo‘sishimcha ixtisoslashuv) moduli.

Majburiy fanlar hajmi 125 kreditdan 160 kreditgachani tashkil etadi. Tanlov fanlariga ajratilgan kreditlarning hajmi jami fanlarga ajratilgan kreditlar hajmining 22 foizidan oshmasligi tavsiya etiladi.

Pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 2-4-bosqich talabalari uchun haftalik o‘quv faoliyatları «4+2» tartibida, shu jumladan darslarning 4 kuni oliy ta’lim muassasasida, 2 kuni maktabgacha va umumiy o‘rtा ta’lim muassasalarida amaliyot o‘tash tartibida olib boriladi.

Talabaning haftalik o‘quv yuklamasi 54 soat etib belgilanadi. Bakalavrit ta’lim dusturini amalga oshirishda majburiy va tanlov fanlarining umumiy soni 32 tagacha bo‘lishi tavsiya etiladi.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat, kompetensiya, modullar, ta'lim mutaxassisligi, kasbiy faoliyat ob'yektlari, o'quv rejalar, profil, ta'lim sikli, maktabgacha ta'lim, ta'lim mutaxassisligi, o'quv rejalar, amaliyot, nazariya, metodologiya, didaktika, metodlar, texnologiyalar, pedagogik ta'sir, o'rghanish, o'zlashtirish, o'qitish, tarbiyalash, yo'naltirish, rag'batlantirish, hamkorlik, innovasiya, integrasiya, modellasshtirish, faoliyat, jarayon, tizim, axborot, kommunikasiya, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash, bilim, ko'nikma, malaka, natija, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, pedagogik modellasshtirish, zamonaviy tadqiqot metodlari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil etish.

### Malaka talabini ishlab chiqishda foydalanilgan kasb standarti:

Kasb standarti nomi	Kasbiy faoliyat turi	Kasb standartining qayd qilish raqami	Kasb standartini amaliyotga joriy etish sanasi
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi	Maktabgacha ta'lim tashkilotida pedagogik faoliyat	R.003.332.1286/I-21	23.08.2021 № 332-ICh

Manba: Kasb standartlari reyestri, <https://prof-standart.uz/uz/profStandart/1291>

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Rektor

G.I.Muxamedov



KELISHILGAN:

OO'MTV huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tadbiq etish markazi

Direktor Sh.U.Yakubov




202\_yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

Kadrlar buyurtmachisi:

Toshkent viloyati Maktabgacha ta'lim  
boshqarmasi

Boshqarma boshlig'i S.R. Baratova



20\_« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

Toshkent viloyati Chirchiq shaxar  
Maktabgacha ta'lim bo'limi

Raxbari J.X.Yusupov



20\_« \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

M.O.

EKSPERTIZADAN O'TKAZILGAN:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish  
davlat inspeksiyasi

Ta'lim muassasalari attestasiysi va davlat akkreditasiysi bosh boshqarmasi  
boshlig'i A.A.Odilov

M.O.



202\_yil « \_\_\_\_ » \_\_\_\_\_